ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4
2025

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

## ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

ТОМ 3, НОМЕР 4

## JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

ТОШКЕНТ-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
№4 (2025) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4

**Бош муҳаррир: | Главный редактор: Chief Editor:**

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

**Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель главного редактора: | Deputy Chief Editor:**

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)**
**Axmedov Oybek Saporboyevich**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM
**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Galiyeva Margarita Rafaelovna**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti
**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti
**Yakubova Matluba Tajibayevna**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Samandarova Lola Sultanovna**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

**FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)**
**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti
**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

**FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)**
**Yakubova Matluba Tajibayevna**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

**FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)**
**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

**TARIX FANLARI**
**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**
Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi
**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**
Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.
**Goncharov Yuriy Mixaylovich**
Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya
**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**
Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya
**Abdullayev Utkir Ismoilovich**
Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti
**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**
Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Abdullayev Timur Pulatovich**
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Abdalov Umidbek Matniyazovich**
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM
**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**
Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti
**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

**PSIXOLOGIYA FANLARI**
**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**
Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi
**Kryukova Tatyana Leonidovna**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya
**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

**IQTISODIYOT FANLARI**
**Ruzmetov Baxtiyar**
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma’mun Universiteti NTM
**Sherov Alisher Bakberganovich**
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ma’mun Universiteti NTM
**Voronsova Yuliya Vladimirovna**
Iqtisodiyot fanlari nomzodi
Moskva davlat boshqaruvi universiteti
**Jabborov Umarbek Rustambekovich**
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ma’mun Universiteti NTM
**Cho‘ponov San’at Otanazarovich**
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ma’mun Universiteti NTM
**Niyazmetov Islambek Masharipovich**
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma’mun Universiteti NTM

**PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**
**Sardor Sharifzoda O’razboy Tabib o’gli**
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ma’mun Universiteti NTM
**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ma’mun Universiteti NTM
**Adilov Zafar Yunusovich**
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ma’mun Universiteti NTM
**Slepko Yuriy Nikolayevich**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Yaroslav davlat pedagogika universiteti
**Xazova Svetlana Abduraxmanovna**
Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma davlat universiteti Belorusiya
**Kalandarova Madina Baxadirovna**
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ma’mun Universiteti NTM
**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma’mun Universiteti NTM

**TIBBIYOT FANLARI**
**Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma’mun Universiteti NTM
**Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**
Tibbiyot fanlari doktori, professor
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Esamuratov Aybek Ibragimovich**
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Samandarova Barno Sultonovna**
Biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Tajiyeva Zebo Baxodirovna**
Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Nazarova Maloxat Berdiboyevna**
Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**
Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

**ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**
**Sultanov Samandar Maxmud o`g`li**
Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)
Ma’mun Universiteti NTM

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## FILOLOGIYA

**1. Искандарова Нодира Бахрамбековна**
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ....................7

**2. Сапаева Хилола Бахромбековна**
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ....................14

**3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi**
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR....................18

**4. Pulat Fozilov**
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE’LLARINING IZOHLI LUG‘ATLARDAGI TALQINI....................23

**5. Masharipov Jakhongir Axmedovich**
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY BETWEEN ENGLISH AND UZBEK....................28

## IQTISODIYOT

**1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna**
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI....................32

**2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna**
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIYASI TASHKILOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI....................38

**3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi**
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI....................45

## PEDAGOGIKA

**1. Usanova Zulfiya Bozorovna**
HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MISOLIDA)....................54

## TARIX

**1. Tuyev Fazliddin Erkinovich**
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSIYALARINING KIRITILISHI: 2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA....................59

**2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi**
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI....................64

**3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich**
TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O‘ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A’ZO BO‘LISHI........................................................68

**4. Xayitmuratova Zaynura G‘aybullayevna**
QADIMGI MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O‘LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI....................................................73

**5. Muborak Madrimovna Matyakubova**
XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA’SIRI.........78

**6. Xayitov Shodmon Ahmadovich**
MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING MA’NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR)..........................83

**7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna**
QADIMGI XORAZM SUG‘ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO‘YI O‘ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.............................89

**8. Durdona Jamolova**
BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.............................................93

**9. Egamov Yusufboy Ergashbek o‘g‘li**
O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O‘RNI..........................................................................................................................98

**10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna**
QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O‘ZLASHTIRISH BOSQICHLARI..............................................................................103

**11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov**
YANGI O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.............................................................................................................107

**12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich**
XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA’LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI...............................................................................................................111

**13. O‘g‘iloy Erbo‘tayeva Suyunovna**
IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI...................................................................................................................115

**14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi**
XORAZM VOHASIDA URUG‘CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI..120

**15. Сулайманова Сохиба Баходировна**
СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ...................................................125

**16. Bahridil Ergasheva**
O‘ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV..........................................................................................................129

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»
ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz

**Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi-**
Ma'mun universiteti Iqtisodiyot kafedrasi
katta oʻqituvchisi
Mavlanovabarchinoy98@gmail.com

# XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YOʻNALISHLARI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362912

**ANNOTATSIYA**
Mazkur maqolada Xorazm viloyatida joylashgan "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonasining tashkil etilishi, iqtisodiy koʻrsatkichlari, mavjud muammolari hamda istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida statistik va ekonometrik usullar asosida EIZ faoliyatining samaradorligi baholangan, zonaga oid yer maydonlari va joylashtirilgan loyihalar tafsilotlari keltirilgan. Bundan tashqari, transport xarajatlari va soliq imtiyozlariga oid mavjud muammolar va ularni bartaraf etish boʻyicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Maqola viloyatdagi erkin iqtisodiy zonalarning iqtisodiy oʻsishdagi roli va istiqbollarini chuqur tahlil qiladi.
**Kalit soʻzlar:** Hazorasp EIZ, erkin iqtisodiy zona, soliq imtiyozlari, investitsiya, transport xarajatlari, iqtisodiy rivojlanish, prognoz tahlil, koʻp omilli regressiya.

---

**Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi-**
Senior Lecturer, Department of Economics,
Mamun University Senior Lecturer

# INNOVATIVE APPROACHES TO ENHANCE THE EFFECTIVENESS OF FREE ECONOMIC ZONES IN THE KHOREZM REGION

**ANNOTATION**
This article analyzes the establishment, economic indicators, existing problems, and future development potential of the "Hazorasp" free economic zone located in Khorezm region. The study employs statistical and econometric methods to assess the effectiveness of the FEZ's activities, providing details on the zone's land areas and implemented projects. Furthermore, the article addresses current issues related to transportation costs and tax incentives, offering practical solutions for their resolution. The paper provides an in-depth analysis of the role and prospects of free economic zones in the region's economic growth.
**Keywords:** Hazorasp FEZ, free economic zone, tax incentives, investment, transportation costs, economic development, forecast analysis, multivariate regression.

---

**Мавланова Барчиной Шоназар кизи-**
Кафедра экономики университета Маъмуна
старший преподаватель

# ИННОВАЦИОННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется создание, экономические показатели, существующие проблемы и перспективы развития свободной экономической зоны "Хазарасп," расположенной в Хорезмской области. В ходе исследования на основе статистических и эконометрических методов была оценена эффективность деятельности СЭЗ, приведены подробные сведения о земельных участках, относящихся к зоне, и реализуемых проектах. Кроме того, рассмотрены существующие проблемы, связанные с транспортными расходами и налоговыми льготами, и разработаны практические предложения по их устранению. В статье проводится глубокий анализ роли и перспектив свободных экономических зон области в экономическом росте.

**Ключевые слова:** СЭЗ Хазарасп, свободная экономическая зона, налоговые льготы, инвестиции, транспортные расходы, экономическое развитие, прогнозный анализ, многофакторная регрессия.

---

## KIRISH VA DOLZARBLIGI

Mintaqada erkin savdo zonalari rezidentlarga bir qator xizmatlarni taqdim etadi. Jumladan, turistik va boshqa xizmat turlarini amalga oshirish va ulardan foydalanish, eksport qilinadigan mahsulotlarni saqlash xizmatlari, davlat soliq xizmati tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq mahsulotni qo'llab-quvvatlash va imtiyozlar bilan belgilanadi. Bu korporativ daromad solig'i sifatida 75 foizgacha majburiyatlardan ozod qilish import qilingan mahsulotlar va 10 yil davomida litsenziya to'lovlarini to'lashdan ozod qilishga asoslanadi.

Mintaqada erkin iqtisodiy zona tashkil etishning asosiy shartlari va maqsadi quyidagilardan iborat:

**- shartlar:** bojxona imtiyozlari, resurslarning erkin harakati, imtiyozli soliqqa tortish, investitsiyalarni qondirish.

**- maqsad:** ushbu mintaqani rivojlantirish, jahon tajribasini o'zlashtirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, innovatsiyalarni sinovdan o'tkazish.

Mintaqada erkin iqtisodiy zonalar o'zlari joylashgan mamlakatlar va hududlarning xususiyatlarini faollashtirish qobiliyati tufayli iqtisodiy o'sishning omillari hisoblanadi. Ularning strategik yo'nalishi sifatida investorlar uchun yaxshi boshqaruv va foydali takliflar, qo'shimcha iqtisodiy faoliyat, tovarlar va xizmatlar eksportini rag'batlantirish, qo'shimcha xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani yaratish imkoniyatlar va yangi ish o'rinlariga asoslanadi.

Hozirgi kunda mintaqada xorijiy investitsiyalarning ulushi ko'p sonli erkin iqtisodiy zonalar hisobiga barcha jahon investitsiyalarning yuqori ulushini tashkil etadi. Bu esa erkin iqtisodiy zonalarning iqtisodiy va huquqiy xususiyatlari ularning bir-biri bilan o'xshashligini ko'rsatadi. Shu orqali alohida mamlakatlarning asosiy iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarini birlashtiradigan va ularning o'zaro ta'sirining sinergetik ta'sirini yaxshilaydigan erkin iqtisodiy zonalar tarmog'ini yaratishga imkon beradi. Shu orqali mintaqada erkin savdo zonalari erkin tijorat zonasi sifatida ham tanilgan bo'lib, maxsus iqtisodiy zonalarning kichik toifasidir. Ular bojxona organlarining aralashuvisiz savdo, yuk tashish va reeksport operatsiyalari uchun omborxona, saqlash va tarqatish vositalarini taklif qiluvchi to'siqsiz va bojsiz hududlar bo'lib hisoblanadi.

Viloyatda iqtisodiyotni rivojlanishi tabaqalashgan xususiyatlarga ega bo'lgan va hududiy ishlab chiqarish uchun alohida mehnat taqsimotiga ega bo'lgan iqtisodiyot tarkibidagi kompleks birlikdir. Shahar aholi punktlari va atrof-muhit o'rtasidagi funktsiyalarni ajratishning birinchi aksi inqilobga borib taqaladi. Mintaqaviy iqtisodiyotning shakllanishi mintaqaning o'zi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan, hududlar ko'pincha o'sish mexanizmi sifatida tan olinadi va xizmatlar ko'rsatish va davlat boshqaruvining muqobil usullari bilan tajriba o'tkazish uchun samarali joylar sifatida tan olinadi.

Resurslarning tanqisligi va ekologik muammolar tufayli yuzaga kelgan bosim barqaror ishlab chiqarish va iste'molga o'tishga imkon beradi. Global isish, iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi, biologik xilma-xillik tahdidlari va boshqa har qanday ijtimoiy va ekologik inqirozlar kabi zamonaviy hodisalar ularning yanada yomonlashishiga qarshi jiddiy choralar ko'rish va ko'rish uchun tashvish uyg'otadi. Noaniqlik va beqarorlik bugungi kunda siyosatchilar duch keladigan asosiy muammolar bo'lib, ularni yumshatish uchun yaxshi rejalashtirish va maxsus simulyatsiyalar zarur.

Hozirgi kunda viloyatda yagona Hazorasp erkin iqtisodiy zonasi faoliyat ko'rsatadi. "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Uning viloyatimizning 6 ta tumanida 10 ta hududi mavjud. Umumiy yer maydoni 439,7 ga. bo'lib, shundan loyiha joylashtirish mumkin bo'lgan foydali yer maydoni 242,4 ga.ni tashkil qiladi. 53 ga. yer maydoniga esa 16 ta loyihalar joylashtirilgan.

Yuqoridagi soliq imtiyozlari kiritilgan investitsiya hajmiga qarab quyidagi muddatlarga taqdim etiladi:

- 300 ming dollardan 3 mln. AQSh dollarigacha 3 yilga;
- 3 mln. dollardan 5 mln. AQSh dollarigacha 5 yilga;
- 5 mln. dollardan 10 mln. AQSh dollarigacha 7 yilga;
- 10 mln. AQSh dollaridan ortiq 10 yilga.

Bundan tashqari, foyda solig'idan investitsiya hajmiga qarab, quyidagi muddatlarga ozod qilinadi:

- 3 mln. dollardan 5 mln. AQSh dollarigacha 3 yilga;
- 5 mln. dollardan 10 mln. AQSh dollarigacha 5 yilga.
- 10 mln. AQSh dollaridan ortiq 10 yilga.

"Hazorasp" erkin iqtisodiy zonasida kelajakda qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi belgilangan. Xususan, xitoylik investorlar bilan lak-bo'yoq, shisha mahsuloti va elektrotexnika yo'nalishida 300 mln. dollarlik 4 ta loyiha yil yakunigacha ishga tushiriladi.

Viloyatda tayyorlangan ip-kalavaning atigi 30 foizi qayta ishlanadi. Joriy yilda viloyatga 280 mln. dollar investitsiya olib kelish va ip-kalavani qayta ishlashni 60 foizga yetkazish mo'ljallanmoqda. Shunga qaramay hududda "Hazorasp" EIZ faoliyati samaradorligini oshirish va bo'sh yer maydonlarga loyihalarni joylashtirish bo'yicha bir qancha muammolar ham mavjud:

Muammo (1): "Hazorasp" EIZ hududlarida joylashgan korxonalar tomonidan xom-ashyo olib kelinadigan va mahsulotlar yetkazib beriladigan hududlarni uzoqligi sababli transport xarajatlari ulushi yuqori bo'lmoqda. Bu esa EIZ ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxini qimmatlashiga hamda ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli EIZ jozibadorligi past darajada qolmoqda.

Muammo (2): Respublika bo'yicha barcha maxsus iqtisodiy zonalarda soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llashda kiritiladigan investitsiyalarning minimal xajmlari bir xil qilib belgilangan (shkalalarga ajratilmagan). Investorlar tomonidan o'z loyihasini joylashtirishda xom-ashyo mavjud hududlarda va logistik jihatdan qulay bo'lgan hududlardagi Mahsus iqtisodiy zonalarda joylashtirishni ma'qul ko'rishadi. Shu sababli "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonasining boshqa mahsus iqtisodiy zonalarga qaraganda investitsion jozibadorligini kamaytiradi.

## METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, omilli tahlil, SWOT-tahlil, tizimli tahlil, ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish usullaridan foydalanildi.

Bundan tashqari asosiy tadqiqot obyekti sifatida Hazorasp erkin iqtisodiy zonasida joylashgan kichik biznes subyektlari faoliyati o'rganib chiqilib, mavjud muammolarga oid takliflar berildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Darhaqiqat, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan Hazorasp erkin iqtisodiy zonalar hududida bir qator korxonalarni tashkil etish rejasi ham tuzib chiqilgan (1-jadval).

1-jadval

**Xorazm viloyati mintaqasida erkin iqtisodiy zonalar hududida tashkil etiladigan korxonalar haqida ma'lumot**

| Shahar va tuman nomi | Korxona nomi | Xorijiy hamkor davlati | Loyiha nomi | Mahsulot turi | Tarmoq |
|---|---|---|---|---|---|
| **Tuproqqal'a tumani** | "Pitnak Panel" MChJ QK | Xitoy Xalq Respublikasi | Sendvich panellar va muzlatgich eshiklari ishlab chiqarish loyihasi | Sendvich panellar,Muzlatgich eshiklari | Qurilish materiallari sanoati |
| **Bog'ot tumani** | "Perfect Logistics" MChJ | - | Yuvish vositalarini ishlab chiqarish loyihasi | Kir yuvish kukuni, Suyuk yuvish vositasi, Gel va shampun,Sovun | Kimyo va neftkimyo sanoati |
| **Tuproqqal'a tumani** | "O'zERAE Climate Control" MChJ QK | Koreya | Damas va Labo avtomashinalari uchun sovutish va isitish tizimlari ishlab chiqarish loyihasi | Sovutish va isitish tizimlari | Mashinasozlik va ehtiyot qismlar sanoati |
| **Tuproqqal'a trumani** | "Muzaffar Kulol" MChJ | - | Temirdan qurilish materiallari ishlab chiqarish loyihasi | Mix,Samorez,Setka,Reshetka,Kuydirilgan sim,Sinklangan sim. | Qurilish materiallari sanoati |
| **Tuproqqal'a tumani** | "Pitnak Panel" MChJ QK | Xitoy Xalq Respublikasi | Quyosh isitgichlari va metall konstruksiya ishlab chiqarish loyihasi | Quyosh isitgichlari, metall konstruksiya | Qurilish materiallari sanoati |
| **Hazorasp tumani** | "Feruzbek Bexruzbek Servis" MChJ | - | Trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish loyihasi | Erkaklar maykasi, Erkaklar futbolkasi, Trikotaj mato,Ichki kiyim,Sochiq | Yengil sanoat |
| **Tuproqqal'a tumani** | "Nur Muxammad Islom Obod" MChJ | - | Bir martalik tibbiyot qo'lqoplari ishlab chiqarish loyihasi | Tibbiyot qo'lqoplari | Farmasevtika sanoati |
| **Tuproqqal'a tumani** | "Umid Sanoat Servis" MChJ | - | Oyoq kiyimlari ishlab chiqarish loyihasi | Oyoq kiyimlari | Yengil sanoat |
| **Tuproqqal'a tumani** | "New Best Style" MChJ | - | Gulqog'oz ishlab chiqarish loyihasi | Gulqog'oz | Qurilish materiallari sanoati |
| **Tuproqqal'a tumani** | "MRM Decor" MChJ | - | Dekorativ plintus ishlab chiqarish loyihasi | Dekorativ plintus | Qurilish materiallari sanoati |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Bog'ot tumani** | "Perfect Logistics" MChJ | - | Meva va sabzovotlarni chukur muzlatich va mevalarni quritishni tashkil etish | Quritilgan meva va sabzavotlar, muzlatilgan meva va sabzavotlar | Oziq-ovqat sanoati |
| **Tuproqqal'a tumani** | "Future Industry Systems" MChJ | - | Elektr dvigatellari ishlab chiqarish loyihasi | Elektr dvigatellari | Elektrotexnika sanoati |
| **Tuproqqal'a tumani** | "TEXTILE ASTRA GLOBAL"MChJ | - | Tekstil fabrikasi tashkil qilish | Trikotaj mato va trikotaj maxsulotlari ishlab chiqarish | Yengil sanoat |
| **Tupoqqal'a trumani** | "New Best Style" MChJ | - | Gulqog'oz ishlab chiqarish loyihasining 3-bosqichi | Gulqog'oz | Qurilish materiallari sanoati |
| **Tuproqqal'a tumani** | "Pitnak Agro Don" MChJ | - | Boyitilgan un mahsulotlari ishlab chiqarish | un mahsulotlari | Oziq-ovqat sanoati |

**2-jadval**

**Hazorasp erkin iqtisodiy zonasining iqtisodiy rivojlanishi haqida ma'lumot**

| № | Ko'rsatkichlar | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| X1 | Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, mlrd. so'mda | 98,3 | 213,6 | 227,8 | 242,6 | 276,2 | 301,1 | 387,9 |
| X2 | Ish bilan bandlar soni, nafarda | 167 | 455 | 486 | 686 | 706 | 1273 | 1383 |
| X3 | Ushbu zonaga tegishli korxonalar soni, ta | 4 | 9 | 9 | 9 | 10 | 11 | 13 |
| X4 | Sarflangan xarajat, mlrd. so'mda | 86,5 | 245,6 | 186,8 | 197,19 | 223,7 | 243,9 | 306,45 |
| Y | Sof foyda, mlrd. so'mda | 11,8 | 32,04 | 41 | 45,4 | 52,5 | 57,2 | 81,45 |

Ushbu jarayon quyidagi grafik ko'rinishiga ega bo'ldi :




**1-rasm. Hazorasp erkin iqtisodiy zonasi iqtisodiy rivojlanishining prognoz qiymatlari grafigi**

Ushbu grafik asosida Hazorasp erkin iqtisodiy zonasi iqtisodiy rivojlanishining prognoz qiymatlari ishlab chiqildi (3-jadval).

**3-jadval**

**Hazorasp erkin iqtisodiy zonasining 2030-yilgacha prognoz qiymatlari haqida ma'lumot**

| Yillar | Ishlab chiqargan mahsulot hajmi, mlrd. so'mda | Ish bilan bandlar soni, nafarda | Ushbu zonaga tegishli korxonalar soni, ta | Sarflangan xarajat, mlrd. so'mda | Sof foyda - fakt, mlrd. so'mda | Sof foyda - prognoz, mlrd. so'mda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **2018** | 98,3 | 167 | 4 | 86,5 | 11,8 | 11,8 |
| **2019** | 213,6 | 455 | 9 | 245,6 | 32,04 | 32,0 |
| **2020** | 227,8 | 486 | 9 | 186,8 | 41 | 40,6 |
| **2021** | 242,6 | 686 | 9 | 197,19 | 45,4 | 45,0 |
| **2022** | 276,2 | 706 | 10 | 223,7 | 52,5 | 53,5 |
| **2023** | 301,1 | 1273 | 11 | 243,9 | 57,2 | 57,5 |
| **2024** | 387,9 | 1383 | 13 | 306,45 | 81,45 | 81,0 |
| **2025** | 405,7 | 1522,9 | 13,9 | 311,9 | | 84,7 |
| **2026** | 444,7 | 1719,4 | 15,0 | 336,7 | | 94,4 |
| **2027** | 483,7 | 1916,0 | 16,1 | 361,5 | | 104,1 |
| **2028** | 522,7 | 2112,6 | 17,3 | 386,2 | | 113,8 |
| **2029** | 561,7 | 2309,1 | 18,4 | 411,0 | | 123,5 |
| **2030** | 600,7 | 2505,7 | 19,6 | 435,7 | | 133,2 |

**4-jadval**

**Hazorasp erkin iqtisodiy zonasiga qarashli yer maydonlari haqida ma'lumot**

| Shahar va tuman nomi | MFY nomi | Umumiy yer maydoni (gektar) | Loyiha joylashtirish mumkin bo'lgan foydali yer maydoni | Loyihalar joylashtirilgan yer maydoni |
|---|---|---|---|---|

| | | | (gektar) | |
|---|---|---|---|---|
| **Jami** | | **439,7** | **242,38** | **52,3** |
| Hazorasp tumani | Aloqali ko'l | 254,3 | 164,8704 | 20,7 |
| Tuproqqal'a tumani | Yakkachiqir | 70,6 | 40,2192 | 14,4 |
| Tuproqqal'a tumani | Muxabbat | 70,7 | 6,4400 | 4,4 |
| Hazorasp tumani | Ziyolilar | 0,6 | 0,6000 | 0,6 |
| Tuproqqal'a tumani | Sharlauk | 0,8 | 0,4000 | 0,4 |
| Urganch tumani | Al-Xorazmiy | 4 | 3,6801 | |
| Urganch tumani | Xilol | 1,2 | 1,2000 | |
| Bog'ot tumani | Gulshan | 7,5 | 7,5000 | 7,5 |
| Qo'shko'pir tumani | Yangilik | 15 | 13,1800 | |
| Yangibozor tumani | Kadriyat | 15 | 4,2900 | 4,3 |

Chunki, ushbu omil erkin iqtisodiy zonaning samarasiz faoliyatini baholashning birinchi xarakterli xususiyati va mezonidir.

Fikrimizcha, Hazorasp erkin zonasining tashkil etilishi mintaqada erkin iqtisodiy zonalarni ko'rinishi va shakli bo'lib hisoblanadi. Ularni samarali tashkil etish uchun ularning innovatsion yo'nalishlarini amalga oshirish lozim deb bilamiz (2-rasm).




**2-rasm. Mintaqada erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirish innovatsion yo'nalishlari**

**5-jadval**

**Xorazm viloyati tuman va shaharlarida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish shakllari**

| № | Tumanlar va shaharlar nomlari | Zonalarni tashkil etish shakllari | Mavjud imkoniyatlari |
|---|---|---|---|
| | **Viloyat bo'yicha jami** | Sanoat, maxsus va yagona zonalar majmui | |
| 1 | Urganch shahri | sanoat zonasi | Markazda joylashuv |
| 2 | Xiva shahri | yagona zona | Turizm maskani |
| 3 | Bog'ot tumani | sanoat zonasi | Investitsiyalarni jalb qilish |
| 4 | Gurlan tumani | maxsus zona | Innovatsion hudud |
| 5 | Qo'shko'pir tumani | yagona zona | Investitsiyalarni jalb qilish |
| 6 | Urganch tumani | maxsus zona | Innovatsion hudud |
| 7 | Hazorasp tumani | sanoat zonasi | Investitsiyalarni jalb qilish |
| 8 | Tuproqqal'a tumani | sanoat zonasi | Zonani yadrosi |
| 9 | Xonqa tumani | yagona zona | Investitsiyalarni jalb qilish |
| 10 | Xiva tumani | yagona zona | Investitsiyalarni jalb qilish |
| 11 | Shovot tumani | yagona zona | Investitsiyalarni jalb qilish |
| 12 | Yangiariq tumani | maxsus zona | Investitsiyalarni jalb qilish |
| 13 | Yangibozor tumani | maxsus zona | Investitsiyalarni jalb qilish |

1-jadvalga asosan, Tuproqqal'a, Bog'ot, Hazorasp va Bog'ot tumanlarida turli mahsulot ishlab chiqarish korxonalari tashkil etiladi. Shunday bo'lsada, Hazorasp erkin iqtisodiy zonasi hududida faoliyat yuritayotgan korxonalar raqobatbardoshligini chuqur tadqiq qilish hamda istiqboldagi rivojlanish darajasini aniqlash uchun ko'p omilli regressiya tahlilini amalga oshirishimiz lozim. Buning uchun Xorazm viloyati Hazorasp erkin iqtisodiy zonasining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari asosida ko'p omilli prognoz hosil qilindi. Amalga oshirilgan tahlilarimiz natijasida quyidagi tenglikka ega bo'ldik:

$$Y=0{,}38*X_1-0{,}0027*X_2-2{,}77*X_3-0{,}055*X_4 \quad (3.1)$$

Bunda: Y – Sof foyda hajmining o'sish sur'ati;

$X_1$ – Ishlab chiqargan mahsulot hajmining o'sish sur'ati;

$X_2$ – Ish bilan bandlar sonining o'sish sur'ati;

$X_3$ – Ushbu zonaga tegishli korxonalar sonining o'sish sur'ati.

$X_4$ – Sarflangan xarajat hajmining o'sish sur'ati.

2- jadval ma'lumotlari asosida Hazorasp erkin iqtisodiy zonasining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari asosida ko'p omilli prognoz hosil qilindi. Unga ko'ra ishlab chiqargan mahsulot hajmi, 2030-yilga borib 600.7 mlrd. so'mga, ish bilan bandlar soni, 2505 nafarga, ushbu zonaga tegishli korxonalar soni, 19 taga, sarflangan xarajat, 435,7 mlrd. so'mga, sof foyda esa mos ravishda 133,2 mlrd. so'mga yetishi kutilmoqda. Yuqoridagi ko'p omilli prognoz asosida asosida yuzaga kelgan grafikdan ko'rish mumkin-ki ushbu model haqiqatdan ham ijobiy ko'rsatkichlarga ega.

Shulardan kelib chiqib, mintaqada erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining istiqbollari quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi:

- ma'muriy (bojxona idoralari mavjudligi sababli ma'muriy choralarni tezlashtirish);
- valyuta (birja rejimini saqlash);
- soliq (mahsulotlarni sotib olish yoki olib kirishda qator davlat va mintaqaviy soliqlardan ozod qilish) afzalliklari.

Yuqoridagilar bilan birga, Hazorasp erkin iqtisodiy zonasi yer maydoniga ham ahamiyat berishimiz lozim. Chunki EIZ hududida bo'sh turgan loyiha joylashtirish mumkin bo'lgan foydali yer maydoni mavjud bo'lib, istiqbolda ushbu yer maydoniga investitsiyalarni jalb qilish orqali EIZ samaradorligini yanada oshirish mumkin. (4-jadval).

4-jadvalga asosan, jami yer maydoni 439,7 ga.ni tashkil etib, ulardan loyiha joylashtirish mumkin bo'lgan foydali yer maydoni 242,4 ga.ni tashkil etadi va loyihalar joylashtirilgan yer maydoni esa 52,3 ga.ni tashkil etadi. Asosan, Hazorasp, Tuproqqal'a, Urganch, Bog'ot, Qo'shko'pir

va Yangibozor tumanlari yer maydoniga ega hududlar boʻlib hisoblanadi. Unda Hazorasp tumani hissasiga Aloqali koʻl (254,3 ga), Tuproqqal'a tumani hissasiga Yakkachiqir (70,6 ga), Tuproqqal'a tumani hissasiga Muxabbat (70,7 ga), Hazorasp tumani hissasiga Ziyolilar (0,6 ga), Tuproqqal'a tumani hissasiga Sharlauk (0,8 ga), Urganch tumani hissasiga Al-Xorazmiy (4 ga), Urganch tumani hissasiga Xilol (1,2 ga), Bogʻot tumani hissasiga Gulshan (7,5 ga), Qoʻshqoʻpir tumani hissasiga Yangilik (15 ga) va Yangibozor tumani hissasiga Kadriyat (15 ga) mahallalari mos keladi.

2-rasmga asosan, mintaqada erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirish eksport salohiyatini oshirish, import cheklovlarini amalga oshirish, bojxona rejimini shakllantirish va investitsiya muhitini samarali amalga oshirish lozim.

Fikrimizcha, Xorazm viloyati tuman va shaharlarida sanoat zonasi (Urganch sh., Hazorasp t., Bogʻot t., Tuproqqal'a t.) maxsus zona (Gurlan t., Yangibozor t., Urganch t., Yangiariq t.), yagona zona (Xiva sh., Xiva t., Qoʻshkoʻpir t., Xonqa t., Shovot t.,) hududlarini tashkil etish maqsadga muvofiq (5-jadval).

Natijada, Xorazm viloyati shahar va tumanlarida turli shakldagi iqtisodiy zonalarni tashkil etiladi. Shu orqali 50 nafar yangi ish oʻrni yaratishga erishish mumkin boʻladi. Bu borada raqobatbardosh ustunlikka erishish va mamlakatlarning jahon iqtisodiy aloqalari tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida jahon amaliyotiga keng joriy etish lozim.

"Hazorasp" EIZ faoliyati samaradorligini oshirish va boʻsh yer maydonlarga loyihalarni joylashtirish boʻyicha yuqorida keltirib oʻtilgan muammolarning yechimi boʻyicha takliflar:

Taklif (1): "Hazorasp" EIZ ishtirokchilari boʻlgan korxonalarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ishlab chiqarilgan mahsulotlarini barcha xorijiy davlatlarga eksport qilishda transport xarajatlari (bugungi kunda amaldagi tartibda qoʻshni davlatlar kiritilmagan), shu jumladan, eksport qilinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun xarid qilingan xom-ashyolarni respublika boʻylab tashishda transport xarajatlarining 50 foizini "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tomonidan qoplab berish.

Taklif (2): Xorazm viloyatidagi "Hazorasp" erkin iqtisodiy zona ishtirokchilariga soliq va bojxona imtiyozlarini qoʻllash uchun kiritilishi lozim boʻlgan investitsiyalarning minimal xajmini 300 ming dollardan 100 ming dollarga, shuningdek foyda soligʻi boʻyicha imtiyoz qoʻllash uchun 3 mln dollardan 1 mln dollarga tushirish kerak.

**Сноски / Iqtiboslar/ References**


1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-5600-son Farmoni.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida"gi PF-60-son Farmoni.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-fevraldagi ""Oʻzbekiston-Turkmaniston" erkin savdo zonasini tashkil etish toʻgʻrisida"gi PQ-90-son Qarori.
4. Xotamov I., Madraximova G. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: "Innovatsiyon rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. - 88 b.
5. Матжонов, Б. Р. (2017). Mintaqaning eksport salohiyatini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli. *Техника. Технологии. Инженерия*, (3-1), 30-31.
6. Sh, M. B. (2024). IMPORTANCE OF TOURISM SERVICES IN THE REGION. *Экономика и социум*, (1 (116)), 311-316.
7. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari
8. www.iqtisodiyot.uz
9. https://lex.uz
10. https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/internal-trade-2

ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

## ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

ТОМ 3, НОМЕР 4

## JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000